

**QORAXONIYLAR DAVRI FARG'ONA VODIYSINING SIRSIZ  
SOPOL BUYUMLARI**

*Soyibboyeva O'g'iloy Odiljon qizi  
NamDU magistratura talabasi*

**Annotatsiya**

Maqolada Qoraxoniylar davrida Farg'ona vodiysining siqsiz spool buyumlari. Farg'ona vidiysiga amalga oshirilgan arxeologik ekspeditsiyalarining vodiy arxeologiya tarixshunosligini o'rni ochib berishga harakat qilingan bo'lib, unda arxeologik ekspeditsiya natijalari tarixshunoslik jihatidan tahlil etilgan. Shuningdek maqolada, 1885-yil fevral oyida rus arxeologi, sharqshunos, O'rta Osiyo tarixi va arxeologiyasi tadqiqotchisi Nikolay Ivanovich Veselovskiy tomonidan amalga oshirilgan ekspeditsiya, 1930, 1933-1934-yillarda B.A. Latinin rahbarligida ishlagan ekspeditsiya, 1939-yilning ikkinchi yarmida I.V. Stalin nomidagi Katta Farg'ona kanali qurilishida arxeologik nazorat ekspeditsiyasi, 1947-1948-yillarda A.N. Bernshtam boshchiligidagi Pomir-Oloy ekspeditsiyasi hamda 1953-yildagi A.P. Okladnikov (1953 yil), G. F. Debets (1954-1955) tomonidan tashkil etilgan Qirg'iziston arxeologik va etnografik ekspeditsiyasi natijalari o'zaro qiyoslandi va natijalari yuzasidan xulosalar berishga harakat qilindi.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona vodiysi arxeologiyasi, arxeologik ekseditsiya, dala tadqiqotlari, Katta Farg'ona kanali, arxeologiya tarixshunosligi, Pomir-Oloy ekspeditsiyasi, M. E. Masson, B.A. Latinin , A.N. Bernshtam , N.I. Veselovskiy.

**Abstract**

The article seeks to explain the role of archeological expeditions to the Fergana Valley in the study of valley archeology, in which the results of archeological expeditions are analyzed historically. The article also includes an expedition in February 1885 by Russian archaeologist, orientalist, researcher of Central Asian history and archeology Nikolai Ivanovich Veselovsky, an expedition led by Balatin in 1930, 1933- 1934, and in the second half of 1939 named after IVStalin. Archaeological control expedition in the construction of the Greater Fergana Canal, the Pamir-Alay expedition led by ANBernstam in 1947-1948 and the AP in 1953 The results of the Kyrgyz archeological and ethnographic expedition organized by Okladnikov (1953) and GF Debets (1954-1955) were compared and attempts were made to draw conclusions.

**Keywords:** Archaeology of the Fergana Valley, archeological expedition, field research, the Greater Fergana Canal, archeological historiography, Pamir-Alay expedition, M. E. Masson, B.A. Latinin, A.N. Bernshtam, N.I. Veselovsky.

Farg’ona vodiysining tarixi va arxeologiyasini o’rganishda arxeologik ekspeditsiyalarning o’rni beqiyos. Ushbu ekspeditsiyalarning natijalari bugungi kunda vodiy tarixi va arxeologiyasini o’rganishda muhim hisoblanadi. Shunday ekspeditsiyalardan biri 1885-yil fevral oyida rus arxeologi, sharqshunos Nikolay Ivanovich Veselovskiy tomonidan amalga oshirildi. U qabr toshlardan yasalgan Mukxona (Mukovlar uyi) ni birinchi bo‘lib qadimiy qabrlar sifatida aniqladi va tavsiflab berdi. Ivanovich o‘rgangan kurumlarning umumiy sonidan faqat beshtasi saqlanib qolgan. Bulardan tashqari ekspeditsiya loy idishlar, tosh eshaklar va temir pichoqlar; ko‘pburchak qabrlar, va dumaloq metall oyna kabi bronza asboblarni topgan. Shuningdek, Veselovskiy uchta qadimiy poytaxt - Aksi, Koson va O‘zgan xarobalarida qazish ishlari olib borgan. O‘shda Sulaymon tog‘ida arab yozuvini topdi va uni tarjima qilgan<sup>1</sup>. Axsida N.I.Veselovskiy qabristonning besh joyida qazish ishlari olib borgan va shisha buyumlarning parchalarini, singan loy chiroq va suv quvurlarini, juda kam saqlangan temir buyumlarining parchalarini, temir pichoqlarni, odamlarning bosh suyaklarini topdi. Bu yerda joylashgan binolar qoldiqlaridan, ikki qator devorning burchagini aniqladi, ular oltita qatorda pishirilgan va po’latdan yasalgan g‘ishtlardan iborat bo‘lib, bir qatorda aylanib turar va katta kvadrat g‘isht bilan yotqizilgan edi. Yana birida, qizil bo‘yoq bilan bo‘yalgan pishiq g‘ishtdan qurilgan va loy massasi bilan bog‘lab qo‘yilgan 10 qatorli pishiq g‘ishtdan qilingan devor topildi So‘nggi qismda juda ko‘p suv quvurlari, uchta mis tanga, ko‘zadan shisha tutqich va kuygan g‘ishtning devori topilgan va ochilgan Kosonda Veselovskiy qadimiy qal’ada qazish ishlarini olib bordi, g‘isht devorlarini va mis tanga topdi. O‘zganda va uning atrofida ko‘plab qo‘rg‘onlarni ko‘zdan kechirdi<sup>2</sup>. Sulaymon tog‘idagi O‘shda u arab yozuvining milodiy 941-yil yozuvini topib tarjima qilgan Xususan, N.I.Veselovskiy Farg’ona shimolidagi qadimiy qabristonlarda 30 ga yaqin tosh qal’alarini o‘rgangan. Ushbu ishlar birinchi marta Farg’ona arxeologiyasida olib borilgan<sup>3</sup>. U rahbarlik qilgan ekspeditsiyaning yana bir ulkan xizmati O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lgan Farg’ona vodiysida sug‘orish tarixini o‘rganishni boshladi va kelajakda ushbu sohaning ahamiyatini ta’kidladi. Yana bir ekspeditsiya 1930-yil Farg’ona ekspeditsiyasi juda katta ahamiyatga ega. 1930, 1933-1934-yillarda B. A. Latinin rahbarligida ishlagan bu ekspeditsiya Farg’ona vodiysida (Qo‘qon-So‘x, Xaqulobod-Uchqo‘rg‘on - Namangan) daryo bo‘ylarida qazishma ishlarini amalga oshirgan. O‘zbekiston hududining Uch-Qo‘rg‘on dashtlarida va daryo bo‘ylarida tadqiqotlarini amalga oshirgan. Tojikistonning Isfara hududida arxeologik joylar va qadimgi sug‘orish qoldiqlarini aniqlashga qaratilgan izlanishlar olib borilgan<sup>4</sup>. Dala ishlari natijalari 350 dan ortiq fotosuratlarda o‘z aksini topgan. Farg’ona vodiysida ilk o‘rta asrlar davri arxeologiyasi masalasini birinchi marta yirik farg‘onashunos B.A. Latinin tomonidan ushbu ekspeditsiyada ko‘tarilganligi ham uning ahamiyatini oshiradi. Olib borilgan arxeologik ishlar natijasida ushbu olim vodiy madaniyati tarixida to’rtta rivojlanish

bosqichini ajratib ko'rsatgan Ulardan III-IV bosqichlar o'rta asrlarni qamrab oladi<sup>5</sup>. Keyinroq, 1961-yili bu davriy jadvalni yangi materiallar bilan boyitdi va qadimgi dehqonchilik madaniyatlarini mateiriallarini uch bosqichga bo'ldi. O'rta asrlar bosqichi Farg'ona III yoki ilk feodalizm deb nomlanib, VVIII asrlar bilan sanalansada, davriy bosqichlarga ajratilmagan. Ammo B.A. Latinin ilk o'rta asrlar davrini umumiy tarzda ta'riflab bera oldi. Shu bilan birga ushbu davrlashtirish ayrim kamchiliklardan holi emas, bular qatoriga materiallar kamchiligi oqibatida vujudga kelgan sxematizmni keltirib o'tish mumkin. Shunga qaramay B.A. Latinin Farg'ona tarixida birinchi bor ilk o'rta asrlar kompleksini alohida ko'rsatib uni o'rganishni boshlab berdi<sup>6</sup> 7 .1932—1933-yillari Namangan viloyatining Uchqo'rgon tumanida, Norin daryosiga elekrostansiya qurish tayyorgarligi munosabati bilan, Latinin Fargona vodisining shimoli-sharqiy rayonlarida arxeologiya razvedkalarini o'tkazdi . Kech bronza davridagi O'rta Osiyo yodgorliklarini o'rganishda muhim yo'naliishlardan biri bu Farg'ona vodiysida joylashgan aholi punktlari va qabristonlar majmuasi bo'lgan Chust madaniyati Farg'ona vodiysi O'rta Osiyodagi eng boy qishloq xo'jaligi vohalaridan biridir. Ushbu yillarda ekspeditsiya Eylatan qadimiy shaharchada arxaik bo'yalgan sopol buyumlarni ham topdi. 1939-yilning ikkinchi yarmida I.V. Stalin nomidagi Katta Farg'ona kanali qurilishida arxeologik nazorat ekspeditsiyasi O'rta Osiyo arxeologiyasi xususan Farg'ona vodiysi arxeologiyasining o'rganilishida samarali natijalarga erishgan. M. E. Masson rahbarligidagi ushbu ekspeditsiyaning Shimoliy Farg'ona kanalining qurilishi bo'yicha kuzatuvlarni T.G. Oboldueva va Janubiy Farg'ona kanali V.D. Jukov 1940- yildagi tadqiqotlarida amalga oshirdi<sup>10</sup> . 18 000 000 m<sup>3</sup> qazish ishlari bilan 270 kmgacha cho'zilgan ushbu sug'orish inshoatining yaratilishi Farg'ona vodiysining janubiy qismidagi qadimgi aholida o'tmishdagi ko'plab madaniy madaniyat yodgorliklarining topilishi bilan birga kechishi mumkin emas edi. Shu munosabat bilan O'zSSR Xalq Komissarlari Kengashi qoshidagi Fan qo'mitasi ushbu qurilishda ishtirok etish uchun rejorashtirilgan arxeologik nazorat ekspeditsiyasini tuzdi. Kanalning butun marshrut bo'ylab bir vaqtning o'zida o'tkazilishi, arxeologik kuzatuvlarni yuqori tezlikda qazish sur'atlariga zarar yetkazmasdan moslashtirish zarurati, O'zbekiston arxeologik tashkilotlariga dala arxeologik tadqiqotlarining yangi usullarini muayyan sharoitda ishlab chiqishga majbur qildi<sup>11</sup>. Arxeologik nazorat ekspeditsiyasi uchta arxeologik guruh (har biri bitta arxeolog va yetti kollektor kuzatuvchisidan iborat), bitta arxitektura guruhi, ikkita topograf, ikkita fotosuratchi va ikkita texnik xodimdan iborat edi. Ekspeditsiyaning o'ttiz uch a'zosi marshrut bo'ylab doimiy harakatda bo'lishdi. Qazish ishlari tugaganidan so'ng ekspeditsiya faoliyatining ikkinchi bosqichi bu magistralga tutashgan hududlarni arxeologik tekshirish edi. Natijada, Farg'ona ko'plab marshrutlarini qamrab olgan va arxeologik kuzatuvlar ekspeditsiyaga aylandi Arxeologik kuzatuv natijasida aniqlangan yodgorliklarning eng ko'p miqdori arab

istilosidan oldingi vaqtga to‘g‘ri keladi. Ekspeditsiya topilmalari ichida Farg‘onada shu paytgacha juda kam uchraydigan qadimiy bronza buyumlar bor: nayzalar, o‘qlar, zargarlik buyumlari va boshqalar. Ekspeditsiya tomonidan qayd etilgan ko‘plab arxaik istehkomlari orasida VIII asrda Farg‘ona poytaxti deb hisoblangan qadimgi Koson xarobalari o‘rganilgan. Umuman olganda Masson rahbarligidagi ushbu ekspeditsiya yutuqlari va natijalari keying davrlarda Farg‘ona vodiysi arxeologiyasi yutuqlari va rivojida alohida ahamiyati bilan ajralib turadi. 1947-1948-yillarda A.N.Bernshtam boshchiligidagi Pomir-Oloy ekspeditsiyasi Pomir va Namangan viloyatida razvedka ishlarini olib bordi. Yu.A.Zadneprovskiy va S.S.Sorokin ishtirokidagi ushbu ekspeditsiya Tojikistonidagi bir qancha qabrlarni o‘rgandi, arxeologik yodgorliklarni ochdi<sup>12</sup>. Keyinchalik 1950-52-yillari faoliyat ko‘rsatgan Qиргизистон, Farg‘ona, Pomir va Janubiy Qozog‘istondagi sakkizta ekspeditsiyalarida ishtirok etgan A.N.Bernshtam rahbarligida tuzilgan Pomir-Farg‘ona kompleks ekspeditsiyasi -sobiq SSSR FA tomonidan tashkil etilib, o‘z oldiga O‘rta Osiyo arxeologiyasi va etnografiyasini o‘rganishni asosiy vazifa qilib olgan. Ekspeditsiya a’zolari qadimdan yashab o‘tgan o‘troq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan aholi madaniyati, tarixiga doir muhim kashfiyotlar qildilar. Bu ekspeditsiya davriy jihatdan ham, hududiy tomonidan ham keng qamrovli ish olib bordi, jumladan, Tyanshan, Pomir, Olay, Farg‘ona kabi yirik geografik nuqtalarda ilk bor arxeologik tadqiqotlar o‘tkazdi. Ayniqsa, qadimgi Farg‘ona tarixida ma’lum bo‘lmagan jez va ilk temir davri arxeologik yodgorliklarining ochilishi ushbu ekspeditsiyaning muhim natijasi deyishimiz mumkin. Bularga Chuyet shahri yaqinidagi Buonamozor, Andijon viloyati, Jalolquduq tumanidagi Dalvarzin, Andijon viloyati Izboskan tumanidagi Eylaton, Marhamat shahri yaqinidagi Mingtepa kabi arxeologik yodgorliklar kiradi.<sup>13</sup> Bu yodgorliklar O‘rta Osiyo tarixida muhim ahamiyatga ega albatta. 1953-yildagi Qиргизистон arxeologik va etnografik ekspeditsiyasi natijalari ham Farg‘ona vodiysining arxeologik o‘rganilishida o‘z hizmatiga ega. A.P. Okladnikov, 1953 yil, G. F. Debets 1954-1955, tomonidan tashkil etilgan, ushbu ekspeditsiya tarkibida bir necha otryadlar ishlagan. V.A.Shishkin, Yu.A. Zadneprovskiy tomonidan Dalverzin qishlog‘ida bronza davridagi bo‘yalgan sopol buyumlar topilishi ham yutuqlardan biri hisoblangan Andijon viloyatidagi qazish ishlari tarixchi, arxeolog Vorones Maksimilian Emmanuilovich rahbarligida amalga oshirilgan<sup>14</sup>. Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona vodiysi arxeologiyasini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etgan arxeologik ekspeditsiyalarning aksariyati natijalari e’lon qilinmay qolganligi sababli vodiylarini o‘rganishda ba’zi muammoli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ammo turli davrlarda nashr etilgan tadqiqotlar orasida ushbu ekspeditsiyalarning maqsadi, tarkibi, erishgan yutuqlari haqidagi ma’lumotlar Farg‘ona vodiysi arxeologiyasi va tarixidagi ba’zi bo’sh bo’g’inlarni to’ldirishi mumkin. Albatta bu o‘rinda tarixshunoslik xulosalasining berilishi muhim. Ekspeditsiyalar erishgan yutuq

va kamchiliklarni o‘zaro qiyosiy tahlil etilishi esa nafaqat vodiy tarixi balki O‘rta Osiyo arxeologiyasini rivojlantirishda asosiy o’ringa ega.

## **REFERENCES**

1. Akhmedov J.Z. Archaeological research and museufication of the historical and cultural monuments of the Fergana valley// International Scientific Journal Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA-2018
2. Бернштам А.Н., Древняя Фергана. Ташкент, 1951.
3. Бернштам А.Н., Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. №26.1952
4. Длужневская Г. В археологические исследования В центральной Азии и Сибири в 1859–1959 годах (по документам научного архива института истории материальной культуры ран) Санкт-Петербург 2011 .
5. Императорская археологическая комиссия (1859–1917). San-Peterburg 2009.
6. Кибиров А.К. Археологические работы в Центральном Тянь-Шане (1953-1956) // Труды Киргизской археолого-этнографической экспедиции М-1959
7. Латынин Б.А. Работы в районе проектируемой гидростанции на реке Нарын в Фергане // ИГАИМК. Вып.110. М-1935